

BOLA TARBIYASIDAGI OTA ONANING ROLI

Badriddinova Hilola

Oriental Universiteti talabasi tel (99894 6914347)

Mamtaliyeva Mavjuda

Oriental Universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedra o'qtuvchisi (998936926925)

Anotatsiya: *Ushbu maqolada bola tarbiyasida ota onaning roli va sharq mutaffakirlarni tarbiyaga yo'naltirilgan so'zlar bo'lib maqsad farzandni komil inson qilib tarbiyalashda nimalarga ahamiyat berishimiz kerkligi haqida mulohaza yuritilgan*

Kalit so'zlari; *parvarish qilmoq , ibrat , samimiylik , do'stona , moddiy ta'minot, insonparvar , adolatli , ilm hikmati, ma'rifiy tarbiya*

Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman.

SHavkat Mirziyoyev

Tarbiya so'zi arabchadan olingan bo'lib "ta'lim bermok", "parvarish qilmoq" odob ahloqni o'rgatish, mehribonlik qilish, ma'nolarni anglatadi. Bola misoli bir nihol uni qanday parvarish qilish ya'ni tarbiyalash atrofidagi insonlarga bog'liq. Bunda ota ona, ustozlari, oilaviy muhit, jamiyatning o'rnini beqiyosdir. Bolaga tarbiya berishda, tarbiya beradigan insonning o'zi o'rnak, ibrat bo'la olish kerak. Tarbiya bu juda muhim hisoblanib u bir kunda berilib qolmaydi, bola hayoti davomida shakllanadi. SHuni to'g'ri yo'naltirish avvalambor ota onaning o'rnini beqiyosdir. Bejizga xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyishmaydi. Ota onaning bergan to'g'ri ta'lim oila uchun jamiyat rivoj uchun beqiyos o'rin egallaydi. Bolaga bo'lgan munosabatni tog'ri yo'nalganligi ya'ni farzand bilan muloqotda ochiqlik, samimiylik, bolaga nisbatan hurmat qaysiki ma'noda bolaning fikrlarni eshitib uning g'oyalarni ham inobatga olish zarur. Ota ona farzandi bilan suhbatni do'stona olib borish va tarbiya jarayonini tog'ri yo'naltirilgan tasirida olib bormoqlik zarurdir. Ota-onalar farzandlarini ardoqlab o'stirar ekanlar, nafaqat ularning jismoniy sog'lig'i, moddiy ta'minoti, balki ularning ma'naviy boyliklari, insoniy fazilatlarini barkamol qilish to'g'risida ham qayg'urib borishlari kerak bo'ladi. Buning uchun ularni yoshlik chog'laridan boshlab ilmu-ma'rifatga qiziqtirib, o'rgatib borish muhimdir. Bola tarbiyasi haqidagi sharq mutaffakirlarning fikrlari quyidagicha bo'lib: Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muxim o'rin tutishni aloxida ta'kidlaydi, oila muxitida ota – onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiya yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug'ilgan kundanoq tarbiyaga muxtojdir, uning ilk tarbiyachilari, albatta ota – onalardir. Berdaqning fikricha barcha odamlar insonparvar va adolatli bo'lsa jamiyat gullab yashnaydi. Buning uchun esa, xalqqa ta'lim berish, unda ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash lozim. Farobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini

tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin». Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada aloxida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi. Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jaxon miqyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib xissa qo'shgan ulug' siymolardan biri Mirzo Ulug'bek. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta axamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da'vat etdi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta'minlashga ishondi.

Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o'rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarining xaqiqiy inson bo'lib kamol topishiga aloxida e'tibor berishlari lozim. Allomalarning oltinga teng bunday fikrlarni hayotga to'g'ri tatbiq etish zarur. Kaykovus o'z asarida tarbiyaga alohida e'tiborni qaratar ekan, tarbiyani inson aqlini va shaxsiy hayotni shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog'atga yetgach, o'g'il bo'lsa uylantirib, qiz bo'lsa uzatib, o'z burchini ado etishi kerak, deb ko'rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e'tibor berish, unga g'amxo'rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: «Agar qizing bo'lsa, uni mastura doyalarga topshirg'il, toki yaxshi parvarish qilg'aylar va kattaroq bo'lg'andin so'ng muallimga topshirg'il. Balog'atga yetgandan so'ng harakat qilib erga berg'il, unga shafqat va marhamat ko'rguzg'il, nedinkim qiz otaning asiri bo'lur». Kaykovusning hayotida xulq-odob qoidalari qanday rioya etish haqidagi, yoshlarni adolatparvar, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo'lishi haqidagi qarashlari, ayniqsa diqqatga sazovor. Ular yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etilgan. Hulosa qilib aytganda farzand tarbiyasi ota ona oldida turgan dolzarb muhim vazifalardan biridir farzand go'yoki oq qog'ozdirdir uni qanday chiroyli yozuvlar bilan yozishda ota onaning ustozlarning, jamiyatning o'rni beqiyosdir. Farzandingizga ko'proq vaqt ajratish unga doimo Seni buni uddalaysan, Sening qo'lingdan keladi, Men sen bilan faxrlanaman, Sen kelajakda o'qimishli, komil inson bo'lasan kabi sehrli so'zlarni aytib bolaga rag'batlantirishni kuchaytirishimiz zarurdir. Xalqimizda shunday gap bor "Daraxtdan meva olaman desang, uni nihollik davridan parvarish qil "Ota onalik ma'suliyat shunchalik qiyinki tarbiyani to'g'ri berib uning orqasidan rahmatnoma eshitish ham shu bergan mehnatning mahsuli bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1uz/uz/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari/

2 Kaykavusning Qobusnoma asari